


2018 yil yanvar – oktyabr oylarida amalga oshirilgan qurilish ishlari

2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida Samarqand viloyatida 2214,8 mld. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan 2017 yilning shu davriga nisbatan 103,4 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari hajmi 40,2 mld. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati 94,6 foizni tashkil qildi.

Qurilish ishlari



Jami qurilish ishlaringin hajmida kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari hajmi 48,6 foizni tashkil etdi. Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar asosan sotish uchun mo'ljallangan uy-joylarni qurish, avtomobil yo'llarini ta'mirlash, yangi qurilish, rekonstruksiya, ijtimoiy soha ob'yektlari (maktablar, mактабгача та'lim muassasalari), namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishida o'z faoliyatlarini amalga oshirmoqda.

Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 2184,2 mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 98,6 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning o'sish sur'atiga nisbatan 1,8 bandga ko'payib, Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 30,6 mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish montaj ishlari hajmidagi ulushi 1,4 foizini tashkil qildi.

2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



2018 yilning yanvar – oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarida nodavlat mulkchilikda bino va inshootlar qurilishining ulushi 1831,7 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 120,8 foizni tashkil qildi. Davlat mulkchiligidagi ulush esa, 3,2 mlrd. so'mni tashkil qilib, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 9,1 foizni tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarida nodavlat mulkchilikdagi fuqarolik qurilish ob'yektlarining ulushi 224,7 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 93,0 foizni, davlat mulkchiligidagi ulush esa, 19,6 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 82,3 foizni tashkil qildi.

Shuningdek, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining ulushi 127,8 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 144,1 foizni, davlat mulkchiligidagi ulush esa, 7,8 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,2 marttani tashkil qildi.

**Samarqand viloyat statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:

I.Raxmatov Aloqa telefoni: (0371) 230-85-32